



MARKETING VA MENEJMENT TERMINLARINING LINGVISTIK JIHATDAN TADQIQOTI.

Nodira Mansurova

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
f.f.f.d., PhD*

Annotatsiya: Ushbu maqolada marketing va menejment sohalaridagi terminologiyani o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarning turli jihatlari va ularning lingvistik tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqotda, terminologiyaning shakllanishi, tarkibi va rivojlanish jarayonlari, shuningdek, bu jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarida qanday ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilinadi. Xususan, marketing va menejment terminologiyasi rus va ingliz tillarida qiyosiy tahlil qilinib, terminlarning shakliy va mazmuniy strukturalari, shuningdek, ularning ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday o‘zgarishlarga uchrashi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: marketing terminologiyasi, menejment terminologiyasi, lingvistik tahlil, terminlarning shakllanishi, qiyosiy tahlil, sotsiolingvistika, struktural xususiyatlar, semantik xususiyatlar, funksional jihatlar, diaxronik va sinkronik tahlil, terminologik tizimlar, tillarni taqqoslash, biznes terminologiyasi, iqtisodiy terminologiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются различные аспекты исследований, направленных на изучение терминологии в области маркетинга и менеджмента, а также их лингвистический анализ. В исследовании анализируются процессы формирования, состава и развития терминов, а также их значение в социальных, экономических и политических сферах. В частности, терминология маркетинга и менеджмента подвергается сравнительному анализу на русском и английском языках, изучаются структурные и семантические особенности терминов, а также их изменения в социальном и культурном контексте.

Ключевые слова: терминология маркетинга, терминология менеджмента, лингвистический анализ, формирование терминов, сравнительный анализ, социолингвистика, структурные характеристики, семантические характеристики, функциональные особенности, диахронический и синхронический анализ, терминологические системы, сравнение языков, бизнес-терминология, экономическая терминология, стандартизация терминов.

Abstract: This article explores various aspects of research focused on the study of terminology in the fields of marketing and management, as well as their linguistic analysis. The study examines the processes of term formation, composition, and development, along with

their significance in social, economic, and political spheres. Specifically, marketing and management terminology is subjected to a comparative analysis in Russian and English, with a focus on the structural and semantic features of the terms, as well as their changes within social and cultural contexts.

Keywords: marketing terminology, management terminology, linguistic analysis, term formation, comparative analysis, sociolinguistics, structural characteristics, semantic characteristics, functional features, diachronic and synchronic analysis, terminological systems, language comparison, business terminology, economic terminology, terminological standardization.

KIRISH. Terminologiya – ma’lum bir bilim yoki ishlab chiqarish sohasiga oid atamalar yig’indisi bolib, atamalarning shakllanishi, tarkibi va faoliyati to’g’risidagi ta’limot hisoblanadi. Terminologiya maxsus bilim sohasi sifatida tadqiqotchilarning e’tiborini tobora ko’proq jalb qilmoqda. Bu rivojlanish jarayonlari natijasida vujudga kelgan zamonaviy ilmiy bilimlarning xalqaro tabiati va natijada ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida til to’siqlarini yengib o’tish yo’li sifatida terminlarni birlashtirish istagi bilan izohlanadi.

Sohaga oid adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qilish asosida xulosa qilish mumkinki, hozirgi kunda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy terminlarni turli jihatardan o’rganishning ahamiyati tobora ortib bormoqda, chunki ingliz tilida ilmiy maqola, gazeta, internet materiali yoki ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan eng so’nggi yangiliklarning asl mohiyatini anglash va turli sohalar uchun tarjimon kadrlarni tayyorlashning takomillashtirish zaruriyati bunga yaqqol misol bo’la oladi.

XXI asrning oxirgi o’n yilliklarida jahon tilshunosligida umumiy, xususiy va sohaviy terminologiya masalalariga bag’ishlangan ko’pdan ko’p tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu o’rinda biz mana shu oxirgi o’n yilliklarda olib borilgan shu izlanishlarning asosiy yo’nalishlarini sanab o’tishimiz mumkin. Terminshunoslik sohasida izlanish olib borgan tilshunoslarning katta guruhi turli tillarda soha terminlarining til lug’at tarkibidagi o’rni va funksional – stilistik xususiyatlari haqida izlanish olib borganlar¹³⁸.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA. Tilshunoslik nazariyasiga bag’ishlangan ayrim ishlarda terminlarning shakliy va mazmuniy strukturalarini tillar va sohalararo o’xshashligi va farqlanishi masalalari ustida tadqiqot ishlari olib borilgan¹³⁹.

¹³⁸ Лейчик В.М. Номенклатура – промежуточное звено между терминами и собственными именами // Вопросы терминологии и лингвистической статистики. – Воронеж, 1974. – Б. 56 - 61; Антонова М.В., Лейчик В.М. Роль концептуальной структуры в формировании отраслевой терминологии // Термины и их функционирование. – М.: 1987. – 129 с.; Крылов А.И. Термин и контекст // Языковые единицы и контекст. – Л.: 1973. – 167 с.; Кубрякова Е.С. Что такое словообразование? – М.: 1965. – 279 с.; Лейчик В.М. Элементы терминоведческой теории текста // Текст восприятие, информация, интерпретация. М.: 2002. – 153 с.; Мешков О.Д. Некоторые актуальные проблемы английского словосложения // Основосложения и полуаффиксация в научном стиле и литературной норме. – М.: 1982. – 158 с.; Madvaliev A. O’zbek terminologiyasida dubletlik masalasi // O’zbek tili va adabiyoti. 1982. № 3. – 123 b.;

¹³⁹ Ermatov I.R. O’zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti: filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PHD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. Алимуратов; О.А., Горбунова Н.Н. Основные синтаксические Слово образовательные модели, реализуемые В англоязычной терминологии менеджмента "Известия вузов. Серия «Гуманитарные

Terminshunoslarning yana bir katta guruhi o‘z tadqiqotlarida asosiy e‘tiborni maxsus maqsadlarga xizmat qiladigan soha terminlarining funksional xususiyatlariga qaratganlar¹⁴⁰.

Yana bir guruh tilshunoslar terminotizim va tillarda terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishi yuzasidan yillar davomida tahlillar olib borganlar¹⁴¹.

Bulardan tashqari ayrim tilshunoslar tillararo terminlar tizimini umumnazariy va amaliy jihatlarini chog‘ishtirma tilshunoslik doirasida qiyosiy o‘rganish va ularni qiyosiy tasniflash masalasiga katta e‘tibor qaratganlar¹⁴².

Har qanday fanning shakllanishi va rivojini terminlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Tilshunoslik turli soha terminlarini tilning tabiati va qonun-qoidalariga mos ravishda tartibga soladi, unifikatsiya qiladi. Shu bois har doim fanda terminologik va leksikologik ishlarga katta zaruriyat, tabiiy ehtiyoj seziladi. Chunonchi, o‘tgan asrning 30–40-yillarida o‘zbek ilmiy terminologiyasini to‘plash, tadqiq qilishning ilmiy me‘yorlarini ishlab chiqishga harakat qilingani kuzatiladi. S.Nazarov, U.Tursunov, S.Ibrohimov, Oybek, Qori Niyozov, E.Musin, M.Solihov, P.Nishonov, S.Usmonov, A.Sobirov, A.Hojiyev va A.Nurmonovlar yozgan risola va maqolalar ushbu harakatning yorqin misolidir. Dunyo tilshunosligida termin lingvistik jihatdan T.V.Shetle, B.N.Raximberdiyev, A.T.Xudoyberganova, O.V.Dovbish, O.V.Baran, N.V.Gavrilova, O.A.Pokrovskaya, M.K.Yumatova, N.V.Moryaxina, I.V.Skvorsova, Ye.N.Lotka singari tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan¹⁴³

науки» 5 (2) 95-101; Суперанская А.В. Общая терминология. – М.: УРСС, 2003. – С.5; Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка. Проблемы структурной лингвистики. – М., 19 8. – 113 с.;

¹⁴⁰ Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent, 2019 -59 b.; Кобрин Р.Ю., Антонова М.В. Терминологические системы и их когнитивные модели: очерки научно-технической лексикографии. – СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского ун-та, 2002. – С.54; Abdullayeva Sh.N. G‘aznachilik sohasida qo‘llaniladigan moliyaviy-iqtisodiy terminlarning chog‘ishtirma tadqiqi (ingliz, o‘zbek, rus tillari misolida). – PhD ilmiy darajasini diss. – Toshkent, 2018. – 17 b.

¹⁴¹ Dadaboyev H.O‘zbek terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi.- Toshkent - 2019 b- 13-18; Бейсембаева Г.З. Диахронный аспект формирования и становления терминосистемы электроэнергетики // Вестник ЕНУ им. Гумилева Л.Н. Серия гуманитарных наук. – 2017. – № (112). – С.54; Гринев С.В. Введение в терминоведение. – Москва: Московский лицей, 1993. – С. 188;

¹⁴² Paluanova X.D. Ekologik terminlarning derivatsion-semantik xususiyatlari (o‘zbek, qoraqalpoq, ingliz va rus tillari misolida). Filol.fan. dokt. (DS) diss. avtoref. – T., 2016. – 88 b.; Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминологических элементов. -М.: Наука,1982. -147 с.; Жеребило Т.В. Термины и понятия лингвистики: Общее языкознание. Социоллингвистика: Словарь–Справочник Назрань: ООО «Пилигрим», 2011. – 280 с.; Прошина А.А. Моделирование двуязычного словаря-тезауруса по экономике: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2008. –23 с.; Мельников Г.П. Основы терминоведения. – М.: Изд-во ун-та дружбы народов, 1991. – 324 с.

¹⁴³ Шетле Т.В. Англоязычная терминология банковского дела в языковой системе и речевой практике: дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2010; Рaxимбердиев Б.Н. Эволюция семантики экономической терминологии русского языка в XX веке: дисс...канд.филол.наук. – Москва, 2004; Худойбергanova А.Т. Принципы построения переводного идеографического словаря банковской терминологии (на материале русского, английского и казахского языков: автореферат дисс...канд.филол.наук. – Алматы, 2003; Довбыш О.В. Английская финансовая терминология и проблемы её перевода на русский язык: дисс...канд.филол.наук. – Москва, 2003; Баран О.В. Сопоставление экономических терминосистем во французском и русском языках в аспекте современной неологии: дисс...канд.филол.наук. – Москва, 2005;

Marketing va menejment sohalarga doir salmoqli ishlar Buyuk Britaniya va AQShda ilg‘or mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan¹⁴⁴. Marketing va menejment sohasiga doir elektron va nashrdan chiqqan bir qancha terminologik lug‘atlar yaratilgan¹⁴⁵.

NATIJA VA MUHOKAMALAR. Tadqiqotimiz jarayonida shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, birgina XXI asrning dastlabki o‘n yilligining o‘zidayoq rus tilshunosligida marketing va menejment sohalarida terminologiyalarini turli aspektlarda, xilma-xil jihatlariga ahamiyat qaratgan holda tadqiqotlar amalga oshirilganligini, shuningdek, ushbu sohalar terminologiyasi rus tili va boshqa tillar orasida qiyosiy aspektlarda o‘rganilgan bo‘lib, tadqiq etilganini kuzatishimiz mumkin. Ushbu tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ahamiyatini tahlil qiladigan bo‘lsak, garchi ular bitta soha terminologiyasini tadqiqot obyekti sifatida tanlagan bo‘lsalar-da, mazkur dissertatsiyalar bir-biridan o‘rganilgan davrlari va islomiy yondashuvlari jihatidan o‘zaro farq qiladi. Shu jumladan, ba’zi bir tadqiqotlarda marketing va menejment sohalariga oid terminlarning struktural jihatlariga, ayrimlarida esa semantik xususiyatlariga alohida e‘tibor berilgan. Ko‘rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlarning aksariyat qismi marketing va menejmentga oid terminlarni shakllanish bosqichlari, diaxron-sinxron va sotsiolingvistik nuqtayi nazardan o‘rganilgan dissertatsiyalarni ham uchratish mumkin. Masalan, N.N.Gorbunovanning “Zamonaviy ingliz tilida menejment sohasiga oid terminosistema: strukturaviy-semantik va kognitiv-freym xususiyatlari” den nomlandan nomzodlik dissertatsiyasida menejment sohasida zamonaviy ingliz tilidagi terminologiyani kompleks modellashtirish xususida to‘xtalib o‘tgan. Olima o‘z tadqiqotida bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkilotlarni boshqarish nazariyasi va amaliyoti sifatida menejment uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lganligi sababli, inson faoliyatining ushbu sohasi va tegishli ilmiy fan doirasida muhim terminologik birliklarning tizimi ishlab chiqilganini ta’kidlab o‘tgan¹⁴⁶.

A.A.Papazyanning “Menejment terminlarining struktur-semantik tavsifi: iqtisodiy lug‘at asosida” deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida terminologik tizimlarning shakllanishi ilmiy bilimlarning ko‘plab sohalari va bo‘limlari ijtimoiy-madaniy vaziyatni o‘zgarishi natijasi va shu sababli terminologiya va terminografiya bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar paydo bo‘lganini ta’kidlaydi. Turli sohalarga oid terminlar sonining o‘sishi umumiy tilga tobora ko‘proq terminlar kirib kelishi natijasida terminologik muammolar butun tilga tobora ko‘proq ta’sir qilayotganligi va shu sababli tillarning lug‘atini shakllantirish jarayonlarini maxsus

¹⁴⁴ William D. Perreault, E. Jerome McCarthy Basic Marketing A Global-Managerial Approach.– The McGraw–Hill Companies, 2002; John W. (John Walker) Marketing management: a strategic decision-making approach/ Library of Congress Cataloging-in-Publication Data; Harper W. Boyd Jr. Orville C. Walker Jr. Marketing Management: A Strategic Approach With a Global Orientation (The Irwin Series in Marketing) Hardcover – January 1, 1995; Anna Freeman Marketing Management: A Strategic Approach Hardcover – September 22, 2020.

¹⁴⁵ Черенкова Н.И. English-Russian Business Dictionary: Англо-русский словарь-справочник делового английского языка: Учебное пособие / Под редакцией. СПбГУЭФ, 2011.-247 с. СПб.: Изд-во; Н.И. Фомина English-Russian dictionary of English for managers. Англо-русский словарь. Английский для менеджеров. / М.: НИЯУ МИФИ, 2009. - 94 с.; Фомина Н.И. English-Russian dictionary of English for managers. Англо- русский словарь. Английский для менеджеров. / М.: НИЯУ МИФИ, 2009. - 94 с.

¹⁴⁶ Горбунова Н.Н. Современная англоязычная терминосистема сферы менеджмента: структурно-семантическая и когнитивно-фреймовая характеристика.- дисс... канд.филол.наук. – Пятигорск – 2014;

maqsadlarda o‘rganish fan metodologiyasi uchun tobora dolzarbligiga to‘xtalib o‘tgan. Shu bilan bir qatorda u menejment terminologiyasining paydo bo‘lish xususiyatlari, talqin qilish muammolari biznesda va iqtisodiy ta‘lim tizimida bir vaqtning o‘zida talab qilish uning tarkibiy, semantik va funksional xususiyatlarini tahlil qilish zarurligini belgilaydi degan fikrni bildiradi¹⁴⁷.

E.G.Bezzateyeva tadqiqotida ingliz tili marketing terminologiyasining lingvistik xususiyatlari va shakllanish hamda faoliyat ko‘rsatish qonuniyatlarini aniqlash uchun ingliz marketing terminologiyasini diaxron-sinxron sotsiolingvistik jihatdan o‘rganib chiqqan. Unda ingliz tilida marketing terminologiyasini sotsiolingvistik tadqiq qilish ushbu ilmiy sohada terminlarning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini kuzatish imkonini berishini bayon qilgan¹⁴⁸.

XULOSA. Tilshunoslikda boshqa tillardan so‘zlarni o‘zlashtirish jarayoni, leksik qatlamning barcha sathlarida bo‘lgani kabi, terminologiyaning taraqqiyotida ham muhim ahamiyatga egadir. Shubhasiz ushbu jarayonlarda bir qator muammolarga duch kelish mumkin. O.V.Dovbishning “Ingliz tili moliya terminologiyasi va uni rus tiliga tarjima qilish muammolari”¹⁴⁹ mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida shu kabi masalalar, jumladan, ingliz tilining moliya terminologiyasi va ushbu soha terminlarini rus tiliga tarjima qilishda duch kelinadigan muammolar xususida to‘xtalib o‘tadi hamda u rus va ingliz tilida mavjud bo‘lgan moliyaviy terminlarni semantik, semasiologik sathlarda qiyosiy aspektda o‘rganib chiqqan va tahlil qilgan, ularning mazkur sathlar kesimidagi umumiy va farqli xususiyatlarini bayon qilgan.

Tilshunoslikda turli sohalar terminologiyasining jadal sur‘atlarda tadqiq qilinganligini tilshunoslarimiz tomonidan bank-moliya, g‘aznachilik, soliq kabi soha terminlarini o‘rganganligini ko‘rishimiz mumkin. O.S.Axmedovning “Ingliz va o‘zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari”, Sh.N.Abdullayevaning “G‘aznachilik sohasida qo‘llaniladigan moliyaviy-iqtisodiy terminlarning chog‘ishtirma tadqiqi”, N.S.Atayevaning “Ingliz va o‘zbek tillarida bank-moliya terminlarining leksik-semantik xususiyatlari” nomli dissertatsiyalarida ushbu sohalar terminologiyasining ba‘zi jihatlariga ingliz, rus va o‘zbek tillari nuqtayi nazaridan qiyosiy aspektda to‘xtalib o‘tishgan¹⁵⁰.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dadaboyev H.O‘zbek terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi.- Toshkent - 2019 b- 13-18;

¹⁴⁷ Папазян А.А. Структурно-семантическое описание терминов менеджмента: на материале экономической лексики: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. Краснодар, – 2007. – 21 с.

¹⁴⁸ Беззатеева Э.Г. Особенности английской терминологии маркетинга и их социолингвистическая обусловленность: Дисс. ...канд. филол. наук. Омск, – 2006. – 194 с.

¹⁴⁹ Довбыш О.В. Английская финансовая терминология и проблемы её перевода на русский язык: дисс... канд.филол.наук. – Москва, 2003. – С. 90.

¹⁵⁰ Abdullayeva Sh.N. G‘aznachilik sohasida qo‘llaniladigan moliyaviy-iqtisodiy terminlarning chog‘ishtirma tadqiqi (ingliz, o‘zbek, rus tillari misolida). – PhD ilmiy darajasini diss. – Toshkent, 2018; Axmedov O. S. Ingliz va o‘zbek tillarida soliq va bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari: Filol.fan.d-ri. ... diss. avtoref. – T., 2016; N.S.Atayeva Ingliz va o‘zbek tillarida bank-moliya terminlarining leksik-semantik xususiyatlari: Filol.fan.d-ri. ... diss. – T., 2020.

2. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent, 2019 -59 b;
3. Ermatov I.R. O‘zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PHD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019;
4. Hojiyev A., Nurmonov A va b. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.336;
5. Ibrohimov S. O‘zbek tili terminologiyasi masalasiga doir. Til va termin masalalari// Qurilish.-1931. 3-son. -69 b.;
6. Nishonov P. Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Filol.fanlari nomzodi...dis. avtoref.– T.: 2009. – 26 b.;
7. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008. – B.11.;
8. Горбунова Н.Н. Основные синтаксические Слово образовательные модели, реализуемые В англоязычной терминологии менеджмента "Известиявузов. Серия «Гуманитарные науки» 5 (2) 95-101;
9. Касимова М.Х. Структурно-системные особенности юридической терминологии узбекского языка. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Тошкент, 1985. – С.13.
10. Лейчик В.М. Номенклатура – промежуточное звено между терминами и собственными именами // Вопросы терминологии и лингвистической статистики. – Воронеж, 1974. – Б. 56 - 61;
- ¹¹. Суперанская А.В. Общая терминология. – М.: УРСС, 2003. – С.5; Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка. Проблемы структурной лингвистики. – М., 198. – 113 с.;